

AFG‘ONISTON VA POKISTON MUNOSABATLARIGA “PASHTUNLAR OMILI”NING TA’SIRI

RAHIMOV Sardor

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada afg‘on va pashtun atamalarini paydo bo‘lishi, pashtunlarni kelib chiqishi, ularning Afg‘oniston va Pokistondagi o‘rni hamda ushbu mamlakatlar siyosatiga ta’siri haqida atroflicha so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada pashtunlarning “Pashtuniston” davlatini tuzish g‘oyasi va uni amalga oshirishga qaratilgan urinishlar batafsil bayon etiladi. Afg‘oniston va Pokistonning pashtunlar harakatiga nisbatan pozitsiyasi va tomonlarning yuritgan siyosati keng yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:** afg‘on, pashtun, Xaybar-Paxtunxva, Pashtuniston, Katta Pashtuniston, Dyurand chizig‘i, Lo‘ya Jirga, “Tolibon” harakati.*

ABSTRACT

This article discusses in detail the emergence of the terms Afghan and Pashtun, the origin of the Pashtuns, their place in Afghanistan and Pakistan, and their influence on the politics of these countries. The article also describes in detail the idea of the Pashtuns to establish a state of "Pashtunistan" and attempts to implement it. The position of Afghanistan and Pakistan regarding the Pashtun movement and the policies pursued by the parties are widely covered.

***Keywords:** Afghan, Pashtun, Khyber-Pakhtunkhwa, Pashtunistan, Greater Pashtunistan, Durand Line, Loya Jirga, "Taliban" movement.*

KIRISH

Jahonda ikki mingdan ortiq etnoslar mavjudligi, ularning aksariyati o‘z mustaqil davlatchiligini tashkil qilish uchun kurash olib borayotgani, o‘z navbatida, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan etnoslar bilan bog‘liq qoidalarining turlicha talqin etilishi yoki yagona yondashuv mavjud emasligi bugungi noan‘anaviy tahdidlar sharoitida yanada dolzarb o‘rin egallamoqda[1]. Ma’lumki, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi xavfsizlik masalalariga etnik va hududiy omillar sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Chunonchi, “Pashtuniston” davlatini tuzish g‘oyasi, shuningdek, pashtunlarning ayirmachilik harakatlarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Avvalo, bir necha asrlardan buyon Afg‘onistonni boshqarib kelayotgan asosiy millat ekanligi, Pokistonda ham katta salmoqqa ega etnik guruh sanalishi tufayli pashtunlarning har ikki mamlakat uchun ahamiyati haqida batafsil to‘xtalish lozim. Shunga ko‘ra, quyida pashtunlar tarixi to‘g‘risida ham muxtasar ma’lumotlar keltiriladi. Ta’kidlash kerakki, pashtunlarni kelib chiqishiga doir fikrlar g‘oyat

munozaralidir. Tarixchilar va hatto pashtunlarning o'zlari orasida ham bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, nazariyalar mavjud. Bu xususida afg'onshunos olim Obidjon Abdurahmonov "Afg'oniston pushtunlari" nomli ilmiy risolasida pashtunlarning paydo bo'lishi to'g'risida o'z xulolasini yozadi:

- 1) yahudiylardan;
- 2) eftalit (oq xun)lardan;
- 3) arablardan;
- 4) eronliklardan;
- 5) yunon xalqlari va rajputlardan;

ayrim pashtun qabilalarini kelib chiqishi turklarga borib taqalishiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Afg'onshunoslik sohasidagi muhim adabiyotlardan biri sanalgan "O'zbekiston-Afg'oniston: o'tmishdan hozirgacha" nomli monografiyada Sh.Akmalov O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlari evolyutsiyasi va mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy aloqalar to'g'risida chuqur tadqiqot xulosalarini yozib, Afg'on muammosini hal etish bo'yicha rasmiy Toshkent tashabbuslari hamda O'zbekiston tashqi siyosatida transafg'on loyihalari haqida mufassal ma'lumotlar keltiradi. Shu bilan birga, muallif ushbu kitobida O'zbekiston va "Tolibon" munosabatlarining hozirgi holati bo'yicha teran tahliliy qarashlarini keltiradi. Buning barobarida afg'onshunos olimning kitobida Pokiston-Tolibon aloqalaridagi muammolar, Pokiston xavfsizligiga tahdidlar yuzasidan bildirgan qimmatli fikrlari ham o'rin olgan.

Mahalliy ekspertlardan Suhrob Bo'ronov o'z ilmiy izlanishlarida "Dyurand chizig'i" bo'yicha Afg'oniston va Pokiston davlatlarining pozitsiyasini o'zaro tahlil etgan holda muammoni bartaraf etilishi Afg'onistondagi mustahkam tinchlikka zamin yaratadi, deb xulosa qiladi. Bunday fikr-mulohazalar olimning "Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati" nomli monografiyasida ham o'z aksini topgan. Pokistonning Afg'onistondagi siyosiy vaziyatga ta'siri, pashtunlar bilan bog'liq etnohududiy muammolar, "Tolibon" harakatining Afg'oniston siyosiy sahnasida paydo bo'lishi sabablarini chuqur o'rganishda aynan mazkur monografik tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar katta o'rin egallaydi. Qolaversa, afg'onshunos olim "Dyurand chizig'i – afg'on muammosining kaliti" nomli ilmiy maqolasida "Dyurand chizig'i" muammosining ildizlarini atroflicha yoritib, ushbu chiziqning tarixiy, etnik va geosiyosiy jihatlarini chuqur tahlil etadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, S.Bo'ronovning "Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga "Tolibon" omilining ta'siri" nomli monografiyasi afg'onshunoslik

sohasida yangi nazariya va yondashuvlarni taklif etilgan muhim manba sanaladi. Shuningdek, mazkur ilmiy asar Afg'onistondagi "Tolibon" harakatini shakllanishi, yirik va mintaqaviy davlatlar siyosatida ushbu harakatning tutgan o'rni har tomonlama tahlil qilingan yirik tadqiqotdir. S.Bo'ronov ushbu kitobida "Tolibon 1.0" va "Tolibon 2.0" hukumatlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar, "Dyurand chizig'i" o'rnatilishi va "Pashtuniston" omilining Afg'oniston-Pokiston munosabatlariga ta'siri, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning bugungi kundagi holati, terrorizm va ekstremizm tahdidining mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri to'g'risida mufassal ma'lumotlar keltiradi.

Pashtunlarni kelib chiqishi va millat sifatida shakllanishi, Afg'oniston davlatchiligida tutgan o'rni va roli, "Pashtuniston" davlatini tuzish g'oyasi, uning tarixi va uni amalga oshirishga bo'lgan urinishlar, shuningdek, bugungi kunda Afg'oniston-Pokiston munosabatlariga etnik omilning ta'siri xususida Obidjon Abdurahmonovning olib borgan tadqiqotlari ilmiy ishini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. Jumladan, afg'onshunos olimning "Hozirgi Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o'rni" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi va "Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar" nomli monografiyasi afg'onshunoslik sohasida pashtunlarni ilmiy jihatdan o'rganishda yangicha yondashuv va qarashlarni taqdim etgani bilan ajralib turadi.

Afg'onistondagi beqaror siyosiy vaziyat va uni Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarga ta'siri xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olim siyosiy fanlar doktori, professor Nihola To'laganovadir. Olima "Markaziy Osiyodagi zamonaviy xalqaro munosabatlarda afg'on omili" nomli monografiyasida afg'on mojarosi haqida yozar ekan, uni 1970-yillar oxiridagi ikki qutbli dunyo qarama-qarshiligi mahsuli sifatida talqin etadi. Shuningdek, Afg'onistonda "Tolibon" harakati, global va mintaqaviy aktor bo'lgan davlatlar: AQSh, Xitoy, Rossiya Eron va Pokiston tashqi siyosatida afg'on vektori xususida to'xtalib, O'zbekistonning afg'on mojarosini hal qilish jarayonlaridagi ishtiroki haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

A.Siddiq ilmiy tadqiqotlarining mahsuli sifatida "Pashtun masalasi: Pokiston va Afg'oniston kelajagining hal etilmagan kaliti" nomi ostida kitob nashr ettirgan. Olimning kitobi "Dyurand chizig'i" va davlatlararo munosabatlar pashtun xalqining o'zligini qanday xavf ostiga qo'ygani hamda jangarilikni qanday kuchaytirgani haqida chuqur tarixiy asoslangan, ichkaridan turib yoritib beruvchi hisobotdir. A.Siddiq ushbu kitobida qabilaviy voqelik va geosiyosiy haqiqatlarga asoslangan holda keng fuqarolik, chegaralararo integratsiya va iqtisodiy aloqalarni o'z ichiga olgan pragmatik yo'l xaritasini taklif etadi.


NATIJALAR

1-rasm



“Pashtuniston” xaritasi[3]

2-rasm



Afg‘oniston va Pokiston etnolingvistik xaritasi [4]

MUHOKAMA

Ayrim adabiyotlarda “afg‘on” va “pashtun” tushunchalari ma’nodosh sifatida qo‘llanadi[5]. XVIII asrda “afg‘on” atamasi butun mamlakat bo‘ylab pashtunlar uchun ishlatilgan bo‘lsa, XIX asrda ushbu atama umumlashtirilib, etnik va diniy o‘lchovlardan qat’iy nazar, mamlakatning barcha aholisi uchun qo‘llanilgan.

Pashtunlar tarix nuqtayi nazaridan o'zlarini "pashtunlar" deb atagan va asrlar davomida XVIII asrgacha etnik jamoasining o'ziga xos an'analari va urf-odatlaridan foydalanib kelgan. "Afg'on" atamasini qabul qilishlari uchun uzoq vaqt kerak bo'ldi. Bu haqida taniqli fransuz sayyohi Ferriyer asosiy pashtun qabilalari, ya'ni g'ilzoy va abdaliylar o'zlarini afg'onlar deb atashini rad etishlarini ta'kidlaydi: "Bu "afg'on" atamasiga qiziqishning yo'qligi bilan bog'liq edi, chunki bu atama bir tomondan pashtun bo'lmaganlar tomonidan pashtunlar uchun foydalanilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, pashtunlar o'zlarini "pashtun" deb atalishini afzal ko'radilar va bundan faxrlanadilar"[6]. Ular Afg'oniston hududidagi barcha mahalliy aholiga nisbatan "afg'on" atamasi qo'llanila boshlanishidan avval yagona "afg'on" nomini olgan edilar[7]. Holbuki, bugungi kunda ham "afg'on" va "pashtun" atamalarini qo'llash bo'yicha hamon ko'plab insonlar, ayniqsa, afg'onistonlik bo'lmaganlar orasida turli chalkashliklar tez-tez uchrab turibdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, pashtunlar tarixini, ularning nasl-nasabini, qabilaviy tuzilmalarini, yozilmagan qonun-qoidalarini o'rganish juda murakkab hodisadir. Bu haqida Gollandiyaning Leyden universiteti qoshidagi Xalqaro Osiyo tadqiqotlari instituti direktorining sobiq o'rinbosari Villem Vogelsang shunday degan edi: "Afg'on va pashtunlar tarixini o'rganish Amazonka daryosining manbasini tadqiq etishga o'xshaydi. Ularni kelib chiqish tarixi Afg'onistondagi boshqa etnik guruhlar tarixi bilan bir xil bo'lgan yoki bo'lmaganligi noma'lum". Pashtunlarni kelib chiqish tarixi, "Pashtun" atamasini paydo bo'lish jarayoni bevosita Afg'oniston tarixining bir qismini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, pashtunlarni paydo bo'lish tarixi qadimgi odamlarni Afg'oniston hududida istiqomat qilgan ilk davriga borib taqaladi, degan dastlabki xulosaga kelish mumkin[3]. Hozirgi kunda pashtunlar Afg'onistonda davlat yaratuvchi (titul) millat sifatida aholining taxminan 45-48 foizini tashkil etadi[5]. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Afg'onistonda hozirda 60 dan ortiq katta va 400 ta kichik pashtun qabilalari mavjud[8]. Ular butun Afg'oniston hududi bo'ylab keng tarqalgan, biroq jips tarzda mamlakatning sharqiy, janubiy va g'arbiy viloyatlarida istiqomat qiladi. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab hozirgi vaqtgacha pashtunlar Afg'onistonda o'zining muhim mavqeni egallab kelmoqda. Habibullaxon Kalakoni (1929) va Burhoniddin Rabboni (1992-1996) hokimiyatidan tashqari Afg'onistonning barcha hukmdorlari ushbu millat vakillari hisoblanadi[5]. Darhaqiqat, Afg'oniston davlatchiligida qisqa muddatlarda hokimiyatlar almashgan bo'lishiga qaramasdan, Durroniylar imperiyasi davridan to bugungi kunga qadar markaziy hokimiyat muntazam ravishda pashtunlar tomonidan boshqarib kelingani alohida e'tiborga molikdir.

Pashtunlar bilan bog‘liq masalaning o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritar ekan, afg‘onshunos olim S.Bo‘ronov tahlillarini quyidagicha bayon etadi: Ular Afg‘onistondagi eng katta etnik guruh bo‘lsa-da, son jihatdan eng ko‘p sonli pashtunlar Pokiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Boshqacha aytganda, pashtunlar Pokiston hududlarida yashaydigan (umumiy aholining 15-18 foizi – taxminan 38 mln) ikkinchi yirik etnik guruh hisoblanadi. Ularning aksariyati Pokistonning Xaybar-Paxtunxva (“Pashtunlar yeri”) ma’muriy-hududiy birligida[8] va Balujiston hududlarida[9], umuman olganda, Kvettadan shimolda Sulaymon tog‘ tizmalari bilan Hind daryosi oralig‘ida, xususan, Karachida ham istiqomat qiladi. Pokiston davlat organlari tizimida, xususan, armiya va politsiyada pashtunlar sezilarli mavqega ega[5]. Qolaversa, pashtunlar o‘z mustaqil davlatiga ega bo‘lish istagida bo‘lgan dunyodagi qadimiy ko‘p sonli etnoslardan biridir. Ularning umumiy soni ma’lumotlarga ko‘ra, taxminan 63 mln gacha deb ko‘rsatilmoqda. Pashtunlar Afg‘oniston aholisining 42–45 foizini (18,8 mln ga yaqin; boshqa manbada 2025-yil *iyun holatiga ko‘ra*, taxminan 43 million 800 ming atrofida[10]), Pokiston aholisining 15 foizini (40 mln dan oshiq) tashkil qilib, ular, shuningdek, Hindistonda (3,2 mln), AQShda (538 ming), Eronda (169 ming), Buyuk Britaniyada (100 mingga yaqin) istiqomat qiladi. Shunisi ahamiyatga molikki, pashtunlarning o‘z davlatini tashkil qilish istagi nafaqat mamlakatda, balki bugungi kunda mintaqada ham katta o‘zgarishlar yuz berish ehtimolini kuchaytirib yubormoqda[3]. 1919-yilda Afg‘oniston to‘liq mustaqillikka erishgach, bu chiziqni Britaniya Hindistoni bilan “de-fakto” chegarasi sifatida qabul qildi, biroq Pokiston mustaqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay, Afg‘oniston Britaniya Hindistoni chegaralariga oid shartnomalar haqiqiy emas, deb e’lon qildi. Zero, bu shartnomalar imzolangan vaqtda Pokiston davlati mavjud bo‘lmagan.

Afg‘on hukumatlari “Dyurand chizig‘i”ni ikki davlat o‘rtasidagi rasmiy chegara sifatida hech qachon tan olmagan va Pokistonning Shimoli-g‘arbiy chegara viloyati, Balujiston viloyati va Federal ma’muriy qabilalar hududining qismlariga turli ko‘rinishda da’vo qilgan. Bu esa o‘z navbatida, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi doimiy keskinlik manbayi bo‘lib kelishining birlamchi omili sanaladi. Afg‘oniston inglizlardan chegarani qayta ko‘rib chiqishni talab qildi, biroq talabi rad etildi[11]. Vaholanki, pashtunlarning “Pashtuniston” davlatini tuzish g‘oyasi mavjud bo‘lib, u nafaqat Pokistonning, balki “Katta Pashtuniston”ga aylanish xavfi tufayli Afg‘onistonning hududiy yaxlitligiga ham tahdid sanaladi.

Pashtuniston (“پښتونستان”) – “pashtunlar mamlakati (yeri, vatani)” deb tarjima qilinadi. Ushbu atama pashtunlar istiqomat qilib keladigan tarixiy hududlarni ham anglatadi. Taxminan III asrdan boshlab bu hudud “Afg‘oniston” deb nomlanadi[2].

Shuningdek, “Pashtuniston” – bu “Dyurand chizig‘i”ning ikki tomonida yashovchi pashtunlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi[5] Pashtuniston bayrog‘i ostida alohida davlat – “Katta Pashtuniston”ni tashkil etilishi kerakligiga asoslangan g‘oya bo‘lib, unda mazkur chiziq bekor qilinishini anglatadi. Mazkur g‘oyada asosan Afg‘onistonlik ayrim pashtun millatchilarining harakati bilan ilgari surilgan[12]. Pokiston davlati tashkil etilgandan so‘ng, pashtun millatchilari vaqti-vaqti bilan mustaqil “Pashtuniston” davlatini yaratish g‘oyasini ilgari suradi, biroq pashtunlarning mustaqil davlat tuzish g‘oyasini amalga oshishiga tashqi kuchlar va bir qator boshqa omillar qarshilik ko‘rsatadi. Xususan, Pokiston ushbu g‘oyaning eng katta dushmani bo‘lib, hanuzgacha pashtunlarning birlashishiga qarshilik ko‘rsatib keladi. Zero, “Pashtuniston” davlati tuzilgan taqdirda, Pokiston Islom Respublikasi o‘z hududining salmoqli qismidan ayrilishga to‘g‘ri keladi[2]. Shu boisdan Islomobodni ushbu g‘oya va uni amalga oshirilishiga qat’iy qarshilik qilishi tabiiy hol sanaladi.

1947-yilda Pokistonning mustaqillikka erishishi bilan rasmiy Kobul Shimoli-g‘arbiy chegara viloyati, Federal ma‘muriy qabilalar hududi va Balujistonning chegara hududlari (tarixan afg‘on davlatchiligining tarkibiy qismi)da istiqomat qilib kelgan pashtunlarga Afg‘onistonga qo‘shilish yoki mustaqil “Pashtuniston”ni barpo etish huquqini berilishini talab qildi, biroq pashtunlarga yo Hindiston yoki Pokistonga qo‘shilish imkoniyati berildi. 1949-yil esa sharqiy pashtun qabilalari Tirax (Xaybar-Paxtunxva)da “Pashtuniston” davlatini tuzilganligi, uning Milliy Assambleyasi ta‘sis etilganligi va bayrog‘i qabul qilinganligini e‘lon qiladi[5].

Ba‘zi olimlarning qarashicha, pashtunlarning “Pashtuniston” davlatini tashkil etish g‘oyasi “Dyurand chizig‘i”dan so‘ng paydo bo‘lmagan, aksincha, pushtunlarning mustaqil davlat barpo etish istagi uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, tojikistonlik afg‘onshunos olim Homid Saidovning “ASIA-Plus”ga bergan intervyusida “Har qanday davlatni tashkil etuvchi yirik etnik guruh yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Afg‘onistonni pashtunlar tashkil etgani to‘g‘ri, lekin bugungi Afg‘onistonni emas. Qayd etilganidek, 1747-yilda Ahmadshoh Durraniy Qandahor xonligiga asos solganida uning maqsadi Afg‘oniston davlatini barpo etish emas, aksincha, “Pashtun xonligi”ni barpo etish edi. Afsuski, bu tarixiy nom hozirgi Pokiston hududida saqlanmagan”, deb ta‘kidlaydi. Shuningdek, S.Harrison Ahmadshoh Durraniy 1747-yilda tuzgan Afg‘oniston davlati, pashtun xarakteriga asoslangan edi. Bu pashtun qabilalari konfederatsiyasi bo‘lib, pashtunlarni birlashtirish, ularning manfaatlari va yaxlitligini pashtun bo‘lmagan raqiblardan himoya qilish maqsadida tashkil etilganligini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, qariyb uch asrdan beri Afg‘onistonda oliy hokimiyatga egalik qilib kelayotgan pashtunlarning

mamlakatdagi boshqa etnoslarning huquq va erkinligini cheklash, pashtunlashtirish siyosatini olib borishi hamda pashtunlar davlatini tashkil qilish g'oyasi har doim mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Vaholanki, 1947-yilda mustaqil Pokiston Islom Respublikasining vujudga kelishi ushbu g'oyani amaliyotda sinab ko'rish harakatini tezlashtirishga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'lganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir[3].

Britaniya Hindistoni va Afg'oniston o'rtasida o'rnatilgan "Dyurand chizig'i" va mustaqil Pokiston davlatining tashkil topishi natijasida Afg'oniston aholisining yarmidan ko'pini tashkil qilgan pashtunlarning yangi tashkil topgan Pokiston hududiga o'tib ketishi Afg'oniston aholisi orasida pashtunlar ulushining kamayishiga olib keldi. Bu voqea afg'on zaminidagi siyosiy inqirozni chuqurlashtirib yubordi. Jumladan, pashtunlar va etnik ozchiliklar o'rtasidagi munosabatlardagi muvozanatni buzdi, chunki bu holat Afg'onistonning pashtunsentrizmini va uning markaziy hukumatining barqarorligini sezilarli darajada zaiflashtirdi va davlat hokimiyati tuzilmasini o'zgartirish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Pashtunlar yashaydigan butun hududga da'vogar Afg'oniston hukumati "Dyurand chizig'i"ni hech qachon tan olmagan[2].

1946-yil oxirida Afg'oniston qiroli Zohirshohning amakivachchasi va kuyovi Sardor Muhammad Dovud (u o'sha yili ukasi Hoshimxondan keyin Afg'oniston Bosh vaziri lavozimini egallagan) ingliz rasmiylariga "Dyurand chizig'i"ning narigi tomonidagi voqealarni tasvirlab bergan maktub yo'lladi. Maktubda Muhammad Dovud Buyuk Britaniya Bosh vaziridan mamlakat bo'linganidan keyin pashtunlarni kutayotgan ayanchli taqdirga e'tibor qaratishni so'ragan. 1947-yil 13-iyunda Afg'oniston Bosh vaziri Buyuk Britaniyaning Kobuldagi elchixonasiga "Pashtunlar va balujlarga o'z hukumatini tanlash yoki Afg'onistonga qo'shilish imkoniyatini berish kerak" degan mazmunda memorandum yubordi. U bu talabni pashtunlar va balujlar afg'onlar ekanligi hamda u yoki bu davlatga qo'shilish to'g'risida o'zlari qaror qilishi yoinki mustaqilligini e'lon qilishi lozimligi bilan asosladi. Memorandumga javoban Britaniya hukumati 1921-yilgi shartnomaga ishora qilib, Afg'onistondan shimoli-g'arbiy chegaralardagi bo'linish jarayoniga aralashmaslikni so'radi. Afg'onlar Hindistonni bo'linishi arafasida inglizlar Hindistonni tark etganidan so'ng, "Dyurand chizig'i" shartnomasi bekor bo'ladi va Pokistonning ma'lum qismi Afg'onistonga o'tadi, deb ta'kidladilar. 1947-yilning 21-iyun kuni Muhammad Dovud Britaniyaga navbatdagi maktubni yo'llab, Afg'oniston dengizga chiqish zarurligi, shuningdek, uning Xaybardan Karachiga tranzit o'tish huquqini inobatga olishni talab qildi. Shunday qilib, Afg'oniston hukumati vaziyatdan foydalanib, janubda o'z ta'sirini kuchaytirish va Arab dengiziga chiqishga harakat

qildi[13], ammo bu urinishlar besamar ketdi. Ba'zi hududlar, xususan, Mohmand, Bajaur va Orakzay 1947-yilda Pokiston tashkil etilgandan so'ng, boshqa qabila tumanlaridan ajralib qolgan edi[14].

1947-yil ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 150 ming kilometr kvadrat bo'lgan "Pashtuniston" hududi 1819-yilgacha Durrioniylar imperiyasining bir qismi bo'lgan, saltanat parchalanganidan keyin Panjoblik sikk hukmdorlari uning sharqiy hududlarini egallab olgan. XX asrning ikkinchi yarmida "Pashtuniston" yerlari Britaniya Hindistoni tarkibiga kiritildi. Pashtunlar Britaniya hukmronligini ag'darishga bir necha bor urindilar. Jumladan, 1897, 1919-1923 va 1930-yillarda eng yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan edi[15]. Buni esa "Dyurand chizig'i" yaratilgach, pashtunlar tomonidan chegara sifatida qabul qilinmaganining yaqqol tasdig'i, deb aytishga asos bo'la oladi. Ta'kidlash joizki, 1947-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lganida Afg'oniston uning a'zoliciga qarshi ovoz bergan yagona a'zo davlat edi. Rasmiy Kobul "Dyurand chizig'i" bo'yicha oldingi barcha kelishuvlar, shu jumladan, uni qo'llab-quvvatlovchi keyingi afg'on-ingliz shartnomalari haqiqiy emasligini e'lon qildi va bunga afg'on hukmdorlari Britaniya bosimi ostida bo'lganini sabab qilib ko'rsatdi[11]. E'tiborli jihati, "Pashtuniston" muammosi hal etilmaguncha Pokiston tan olinmasligi kerak, deb ta'kidlagan hukumat bir oydan keyin e'tirozini qaytarib oldi. 1948-yil fevral oyida Pokiston bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan birinchi hukumatlardan biri bo'ldi[14].

Afg'oniston hukumati 1949-yilning 31-avgust sanasini "Pashtuniston kuni" deb belgilaydi. Muhammad Dovud "Pashtuniston" masalasida aksilpokiston siyosatini olib bordi. Uning hukumati 1921-yilda qabul qilingan ingliz-afg'on bitimini bekor qilinishini, Kobulda Lo'ya Jirga chaqirilishini hamda pashtunlarga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi berilishini talab qiladi. Tabiiyki, pashtun millatchilari va sharqiy pashtun qabilalari rasmiy Kobul tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Pokiston hukumati, o'z navbatida, pashtun ayirmachiligi va millatchilik kayfiyatini bartaraf qilish maqsadida bir qator ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, XX asrning 70-80-yillarida Kobuldagi markaziy hokimiyatga qarshi kurashda Pokiston millatchi ruhdagi afg'on guruhlarini chetlashtirgan holda islomiy radikal partiyalarni; 90-yillarda Kobulda o'ziga moyil bo'lgan siyosiy kuchni ko'rish maqsadida "Tolibon" harakatini qo'llab-quvvatlaydi (Holbuki, "Toliblar" hukumati ham "Dyurand chizig'i"ni Afg'oniston bilan Pokistonning davlat chegarasi sifatida tan olmadi). 2010-yilda Pokistonning Shimoli-g'arbiy chegara viloyati Xaybar-Paxtunxva, ya'ni "pashtunlar yeri" deb o'zgartirildi. 2018-yilda Federal ma'muriy qabilalar hududi Xaybar-Paxtunxva tarkibiga kiritildi, uning aholisiga barcha siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyati berildi[5]. Shunga qaramay, Pokistonning mazkur viloyatida hali-hanuz ayirmachilik

harakatlari davom etib, mahalliy aholi orasida “Pashtuniston” g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchilar topilmoqda.

Afg‘oniston-Pokiston munosabatlarida uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan “Pashtuniston” muammosi, ya’ni Afg‘onistonning XIX asr boshlarigacha Kobul tomonidan nazorat qilingan va 1947-yilda Pokiston tarkibiga kirgan asosan pashtunlar yashaydigan yerlarga bo‘lgan yashirin da’vosi pashtun qabilalari uchun muhim siyosiy masala bo‘lib qolmoqda[16]. Darhaqiqat, Afg‘oniston rasmiylari mustaqil “Pashtuniston” davlatini tuzish g‘oyasini faol qo‘llab-quvvatladilar. Masalan, Afg‘onistonning sobiq ta’lim vaziri Najibullaxon 1948-yil 4-fevralda Kobul radiostansiyasidan Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara yaratilishida pashtunlarning manfaatlari hisobga olinmagani haqida so‘zladi[6]. Bu to‘g‘risida afg‘on diplomati Rahmon Pajvok esa Pokistonni “Pashtuniston” masalasida ikki tomonlama standartlar qo‘llashda aybladi, ya’ni rasmiy Islomobod bu ikki muammo bo‘yicha pozitsiyasidagi qarama-qarshilikka ishora qilib, u Pokiston Kashmirda plebitsit (referendum) o‘tkazishni talab qilgani, pashtunlarga esa buni rad etganini ta’kidladi[17]

Pokistonning dastlabki rahbarlari esa Pokiston tashkil etilishiga qarshi chiqqan pashtunlarni xoinlar sifatida ko‘rsatdi. Ushbu omil mustaqillikdan so‘ng Musulmonlar Ligasini G‘affor Xonning siyosiy guruhi bilan kelishuvga erishishi uchun to‘sqinlik qildi va bir necha yil davomida Shimoli-g‘arbiy chegara viloyati siyosatini beqarorlashtirdi. G‘affor Xonning ukasi Xon Sohib Pokiston mustaqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay Shimoli-g‘arbiy chegara viloyati Bosh vaziri lavozimidan chetlashtirildi. Uning Shimoli-g‘arbiy chegara viloyati nomini Pokiston tarkibidagi pashtun xususiyatini aks ettirish uchun o‘zgartirish haqidagi taklifi esa rad etildi. Ikki aka-uka, oilaning boshqa a‘zolari va ularning bir necha tarafdorlari qamoqqa tashlandi. Bu esa Pokistondagi pashtunlar orasida mustaqillikdan avvalgi ziddiyatni yanada keskinlashtirdi. Bir necha yil o‘tgach, G‘arbiy Pokiston viloyatlari yagona ma’muriy birlikka birlashtirilganda Xon Sohib nihoyat hukumat koalitsiyasiga kiritildi. Vaholanki, bu paytga kelib, vaziyat allaqachon murakkablashgan edi. Afg‘onistonning Pashtunistonni qo‘llab-quvvatlashi Pokistonning o‘zidan kichikroq va zaifroq shimoli-g‘arbiy qo‘shnisi bilan munosabatlarini buzib bo‘lgan edi[18].

1949-yil Afg‘onistonning “Dyurand chizig‘i” bo‘ylab, shu jumladan, Pokiston hududlaridagi qabilalar bilan munosabatlarni yuritish uchun Chegara va qabila ishlari bo‘yicha department (keyinchalik vazirlik)ni tuzdi. Birinchi rahbari o‘sha vaqtdagi Afg‘oniston Bosh vaziri Dovud bo‘lgan bu tashkilot Pokiston hokimiyat organlariga afg‘onlarning pashtun qabilaviy hududlariga ochiq va yashirin da’volari orqali bosim o‘tkazgan “Pashtuniston” militsiyasini tashkil qilgan. Mazkur vazirlik davlat

tomonidan qabila boshliqlarini tanlab olish, ularga subsidiyalar to'lash, ularni vazirlikda qabila hokimiyati lavozimlariga tayinlash va ularning o'g'illarini Kobul maktab-internatlariga yollash vositasi ham bo'lgan[19]. Bu orqali rasmiy Kobul Pokistonda Afg'onistonga xayrixoh kuchlar sonini oshirish, Pokistonning siyosatiga ta'sir o'tkazish kabi maqsadlarni ko'zlaganini taxmin qilish mumkin.

1947-1980-yillar oralig'ida "Dyurand chizig'i" va Pashtuniston masalasi doimiy raqobatni keltirib chiqardi. Bu davrda Afg'oniston Pokiston hududiga nisbatan irredentistik da'volar ilgari surdi. U Pokistonning BMTga a'zoligini tan olishdan bosh tortdi. Ta'kidlash joizki, Pokistonning BMTga a'zo bo'lishiga qarshi ovoz bergan yagona musulmon davlat aynan Afg'oniston edi. Hindiston-Pokiston chegarasidan farqli o'laroq, Pokiston-Afg'oniston allaqachon belgilangan chegarani meros qilib oldi. 1893-yilda Dyurand va uni "mustahkam himoya devori" deb hisoblagan Afg'oniston qiroli Abdurahmon tomonidan o'rnatilgan edi. Afg'onistonning ketma-ket hukumatlari tomonidan belgilangan, ma'qullangan va ratifikatsiya qilingan bo'lsa-da, Kobul uning qonuniyligiga shubha bildirdi va qayta muzokaralar o'tkazish lozimligini ta'kidladi. Afg'oniston shartnoma majburiy ravishda imzolanganini, yuridik kuchga ega emasligini va Britaniya imperiyasining parchalanishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotganini da'vo qildi[12].

"Dyurand chizig'i" Afg'onistonning ketma-ket hukumatlari tomonidan jumladan, inglizlar Hindistondan chiqib ketganidan keyin qiroli Zohirshoh hukumati tomonidan ham qabul qilinmadi[20]. Muhammad Zohirshoh davrida ham Afg'onistonda pashtunlarning suveren davlati — "Pashtuniston"ni yaratish masalasi faol ko'tarila boshladi. Chegara muammolari har ikki tomonning chegara hududlari ustidan kuchli nazorat mavjud emasligi tufayli murakkablashdi[21]. 1950-1960-yillarda Pokiston Islom Respublikasi Afg'oniston hukumati va Shimoli-g'arbiy chegara viloyatidagi pashtunlarning sharqiy Afg'onistondan Hind daryosigacha cho'ziladigan "Katta Pashtuniston" uchun olib borgan tashviqotiga duch keldi[22]. Buning barobarida Pokistonda mazkur mamlakatlarni birlashtirish g'oyalari ilgari surila boshlandi.

1950-yillardayoq Pokistonning birinchi harbiy rahbari, general Ayubxon Afg'oniston va Pokiston o'rtasida federatsiya tuzishni taklif qilgan edi. Ayubxon, shuningdek, bir-biriga hududiy jihatdan bog'liq bo'lgan Afg'oniston, Pokiston, Eron va Turkiya kabi musulmon mamlakatlarining mintaqaviy konfederatsiyasini qo'llab-quvvatlagan. Bu Pokistonga Hindistonga qarshi turishda yordam beradi, chunki son jihatidan ustunlik va ulkan resurslar ta'minlanadi, degan ishonch mavjud edi. Pokistonlik strateglar ko'pincha ingliz tarixchisi Freyzer Titlarning Pokiston mustaqillikka erishganidan so'ng yozgan so'zlarini keltirganlar: "Tarix shuni

ko'rsatadiki, Afg'oniston va Pokistonning birlashuvi tinch yo'l bilan bo'lmasa, kuch bilan amalga oshiriladi"[23]. Vaziyat tobora chigallashadi. 1955-yildagi inqiroz tufayli mazkur mamlakatlar o'rtasida hatto urush boshlanishi xavfi yuzaga chiqdi[24]. Buni Kobul-Islomobod o'rtasidagi keskinlikning, shak-shubhasiz, eng yuqori nuqtasi deb aytish mumkin.

Muhammad Dovud Afg'onistonda o'zining siyosiy mavqeyini mustahkamlash uchun "Pashtuniston" g'oyasini qo'llab-quvvatladi. O'sha vaqtda Qo'shma Shtatlar "Pashtuniston"ning tashkil topishi uning mintaqadagi ittifoqchisi Pokistonni parchalab yuborishini bilgan holda, Dovudning Vashingtonga harbiy yordam so'rab qilgan murojaatini, ya'ni 1954-yil AQSh Davlat kotibi Jon Dalles rasmiy diplomatik notada Dovudning AQSh tomonidan harbiy yordam haqidagi iltimosini rad etdi. Buning o'rniga u Afg'onistonni Pokiston bilan "Pashtuniston" muammosini hal qilishga undadi. Dalles nota nusxasini Pokistonning Vashingtondagi elchisiga yubordi. Shunday qilib, Vashington tomonidan iltimosi rad etilgan Dovud bir oy o'tgach, Moskva bilan Afg'onistonga qurol bo'yicha birinchi kelishuvni tuzdi. Bir yil ichida Sovet rahbarlari Nikita Xrushchyov va Nikolay Bulganin Afg'onistonga Sovet Ittifoqining yirik harbiy va iqtisodiy yordam dasturlarini boshlash maqsadida

Kobulga tashrif buyurishdi[25].

Shu bilan birga, 1961-1963-yillarda Afg'oniston Pokistondagi qurolli ayirmachilarni qo'llab-quvvatlagani sababli ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar butunlay uzilgan edi. Bunday xatti-harakatlar oqibatida Pokiston Afg'onistonning tranzit savdosi uchun Karachi portidan foydalanishni to'xtatdi. 1973-yilda Muhammad Dovud Xon Afg'oniston Prezidenti bo'lgach, Afg'oniston yana Sovet Ittifoqi yordamida Pokistondagi pashtun ayirmachilarini qurollantirish siyosatini davom ettirdi[25]. Sirasini aytganda, ichki va tashqi siyosati "Pashtuniston" harakatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan xorijiy davlatlar qatoriga Afg'oniston, Eron, SSSR va AQSh kiradi. Sovetlarning Afg'oniston ichki ishlariga harbiy aralashuvi millionlab afg'onlarning Afg'onistondan Pokistonga ko'chib o'tishiga sabab bo'ldi. Sovetlarga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlagani uchun afg'on xalqi "Pashtuniston"ga da'vo va yordamni to'xtatdi. Shuningdek, Eron Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi "Pashtuniston" mojarosida vositachilik qilishda ishtirok etdi hamda Bhutto hukumati bilan, ayniqsa, Balujistondagi ayirmachilik harakatlarni bostirishda harbiy hamkorlik qildi[26]. Bu hamkorlik uchun Eronda bir qator sabablar mavjud bo'lib, avvalo, mazkur ayirmachilik harakatlari Eronning Seyiston-Balujiston viloyatidagi balujlarni ham ruhlantirishi va ushbu hududda ham keng yoyilishi mumkin edi.

Kobulning Pokistondan mustaqil "Pashtuniston"ni ajratib olish chaqirig'i Afg'onistonni Hind daryosigacha kengaytirgan bo'lardi. Sovuq urush davrida

Pokiston AQShning ittifoqchisiga aylandi, Afg'oniston esa Sovet Ittifoqidan diplomatik va harbiy yordam so'radi. AQSh-Sovet raqobati Afg'oniston-Pokiston chegara mojarosini yanada alanga olishiga turtki bo'ldi[11]. Da'volar vaqt o'tishi bilan o'zgargan bo'lsa-da, bu Islomobod uchun haqoratli edi, chunki u Pokistonni o'z hududining yarmidan va aholisining katta qismidan mahrum qilishi mumkin edi. Pokiston o'zining sovet bosqinidan oldingi maqsadlariga erisha olmadi. Boisi Afg'oniston "Dyurand chizig'i"ni rasman chegara sifatida qabul qilmadi[12].

XXI asrga kelib ham, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishiga asosiy "to'siq" – chegara mojarosi bo'lib qoldi va hattoki keskinlik yanada ortdi. Masalan, 2001-yildan beri "Pashtuniston" muammosi ko'pincha Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi transchegaraviy to'qnashuvlarga javoban og'ir shaklda amalga oshirilmoqda. Buni Goshta tumani yaqinida Afg'oniston va Pokiston kuchlari o'rtasidagi chegaradagi to'qnashuvlardan keyingi voqealar, xususan, 2003-yilning iyulida Pokistonning Kobuldagi elchixonasiga hujum qilinishi[16] misolida ko'rish mumkin edi.

Nyu-Dehlidagi Tinchlik va mojarolarni o'rganish institutining direktori o'rinbosari Suba Chandran maqolasida "Tolibon" Afg'onistonda AQSh boshchiligidagi qo'shinlarga qarshi kurashda Federal ma'muriy qabilalar hududidan xavfsiz boshpana va qutqaruv hududi sifatida foydalanib kelgan, deb yoziladi[27]. "Tolibon"ni Kobulda qayta hokimiyatga kelishi uning "Pashtuniston"ga bo'lgan talabini deyarli qayta tikladi, hokimiyatni qo'lga kiritgandan so'ng 4 oy ichida chegarani o'rab olish bo'yicha barcha ishlarga keskin qarshilik ko'rsatib, Tolibon "Pashtuniston"ga nisbatan o'z maqsadiga erishishda qat'iyligini namoyish etdi. "Pashtuniston" g'oyasini Afg'onistondagi "Tolibon" harakatidan tashqari, Pokistonning aholisining 15 fozini (23 milliondan ortiq) tashkil etuvchi mahalliy pashtunlarning katta qismi ham qo'llab-quvvatlaydi[28]. Darhaqiqat, Pokistonning g'arbiy chegarasi Afg'onistonda tartibsizlik mavjudligi uchun ham beqarordir. Pokiston vaqti-vaqti bilan Afg'onistondan yashirin va ochiq tahdidlar qabul qiladi. Xalqaro chegarani (odatda "Dyurand chizig'i" deb ataluvchi) belgilash bo'yicha qarama-qarshi fikrlar hamda Afg'onistonning "Pashtuniston" masalasi yuzasidan olib borayotgan tashviqoti ular o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlardagi ikki asosiy va doimiy muammo hisoblanadi[12]. E'tiborli jihati, Pokiston uchun hozirgi tahlikali jihat "Tolibon"ning Pokistondan mustaqil o'yinchiga aylanib borishidir. Bu holat istiqbolda "Pashtuniston" g'oyasi xavfini qayta kun tartibiga ko'tarishi mumkin. Pokistonlik siyosatchi va sobiq senator Afrosiyob Xattakni bayon qilishicha, Pokistonning millionlab pashtunlari "Tolibon"ning pashtunlarga qarshi loyiha kanligini anglab olgan[29].

Chunonchi, Pokiston hududida Pashtun harakati ham mavjud bo'lib, uning vakillari "Dyurand chizig'i"ning har ikki tarafidagi barcha pashtunlarni o'z ichiga oladigan mustaqil "Pashtuniston" davlatini yaratish, Pokiston davlati tarkibida esa kengroq siyosiy muxtoriyat va mustaqillikka erishish uchun kurash olib bordi. 2018-yilning dastlabki oylarida boshlangan "Pashtunlarni himoya qilish harakati" (PHH; ingliz tilida Pashtun Protection Movement yoki Pashtun Tahofuz Movement) politsiya tomonidan Karachi shahrida yosh pashtun yigiti Naqebulla Mahsudni o'g'irlab ketilishi va o'ldirilishiga qarshi paydo bo'lgan munosabatdir. Uni o'ldirilishi xalqning g'azabini qo'zg'atdi, uning tug'ilib o'sgan shahri Janubiy Vaziriston faollari adolatga chaqirish uchun butun mamlakat bo'ylab norozilik aksiyalarini boshladi. Harakatning asosiy talablari: harbiylar tomonidan hokimiyatni suiiste'mol qilishga, asosiy erkinliklarni cheklashga, zo'rlik bilan odam o'g'irlash va g'oyib bo'lishiga barham berish, qurbon bo'lganlar uchun adolat. Pashtunlar misolida PHH misli ko'rilmagan milliy harakatga aylandi. Pokiston etnomillatchilari o'z guruhlarini va mintaqalari uchun kengroq siyosiy, iqtisodiy va madaniy avtonomiya talab qila boshlashdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Afg'oniston sobiq Prezidenti Ashraf G'ani Pokiston deputati Muhsin Javid Dovar bilan pashtunlar masalasi bo'yicha uchrashuv o'tkazgan. Muhsin Dovar "Pashtunlarni himoya qilish harakati" asoschilaridan biri, Pokiston parlamentining Quyi palatasida Janubiy Vaziristondan deputat, shuningdek, "Milliy demokratik harakati" partiyasi rahbari hisoblanadi. Bu voqealardan xulosa qilish mumkinki, Afg'oniston va Pokiston chegarasidagi etnosiyosiy vaziyat borgan sari keskinlashib bormoqda[29]. Pokiston siyosati esa doimo pashtun harakatini oldini olishga qaratilgan. Islomobod pashtunlarning Afg'oniston zaminidagi rolini oshirishdan, ayniqsa, ularning Afg'oniston hukumatidagi ta'sirini oshirish[17] orqali qanoatlantirish, shuningdek, mamlakatda etnosiyosiy muvozanatni izdan chiqarishdan manfaatdor edi[21]. Pokistonlik pashtunlar katta ehtimol bilan "Pashtuniston" g'oyasi uchun qadamlar tashlayotgandek taassurot uyg'otmoqda, biroq ushbu g'oya Pokistonning hududiy yaxlitligini parchalab tashlashi mumkinligi hisobga olinsa, bu singari gipotezalar yaqin istiqbolda o'z tasdig'ini topishi biroz haqiqatdan yiroq[29].

Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar keskinlashuvining asosiy sabablaridan biri "Dyurand chizig'i" pashtun qabilalarini ikki qismga bo'lib yuborganligidir. Har ikki mamlakat hududidagi pashtun qabilalari o'zini bir etnik guruhning vakillari sifatida ko'rishadi. Barcha pashtun qabilalarini birlashtirishga bo'lgan har qanday harbiy-siyosiy harakat Pokiston uchun bir qator hududlaridan ajralib qolish xavfini paydo qiladi[30]. Ba'zida Kobul (Pokistondan) Karachi shahri

bilan birga butun Balujiston hududini talab qiladi[12]. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edi: “Mojarolarni davom etishi ba’zi bir kimsalarga “ajratib yuborilgan xalqlar” muammosini zo‘r berib avj oldirishga imkon bermoqda. Bunda ko‘pincha, masalan, Afg‘oniston bilan chegaraning ikki tomonidagi o‘zbeklar yoki tojiklarni, pashtun qabilalarini birlashtirish foydasiga sun‘iy dalillar to‘planmoqda. Mavjud chegaralarni etnik asosda o‘zgartirish yo‘lidagi har qanday urinish qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilishning o‘zi dahshatli[31].

XULOSA

Umuman olganda, tarixiy manbalarda “afg‘on” va “pashtun” tushunchalari dastlab faqat pashtun etnosini anglatgan bo‘lsa, XIX asrdan boshlab butun Afg‘oniston aholisiga nisbatan umumlashtirilib qo‘llanila boshlandi. Pashtunlar asrlar mobaynida Afg‘oniston siyosiy elitasining asosiy tayanchi bo‘lib keldi. Bu tizim ularning siyosiy qarorlarida mustaqillik, o‘zlikni saqlash va hududiy yaxlitlik masalalarida qat’iy pozitsiyani belgilab berdi. Ayniqsa, Dyurand chizig‘i bo‘yicha mojaro va “Pashtuniston” g‘oyasi Afg‘oniston–Pokiston munosabatlarida eng muhim va uzoq davom etayotgan geosiyosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur masala nafaqat etnik xarakterga ega, balki mintaqaviy xavfsizlik, davlat chegaralari va strategik manfaatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nazarova F. (2021) Yaqin Sharqdagi milliy-etnik munosabatlarda kurdarning o‘rni. – T.: EFFECT-D. – 86 b.
2. Abdurahmonov O. (2021) Afg‘oniston pushtunlari. Ilmiy risola. – T.: EFFECT-D. – B.73.
3. Abdurahmonov O. (2024) Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlar. Toshkent.: “Donishmand ziyosi”. – B.148.
4. Parkes A. Ethnolinguistic Groups in Afghanistan. ResearchGate. Retrieved from https://www.researchgate.net/figure/Ethnolinguistic-Groups-in-Afghanistan_fig1_324807623
5. Бобоқулов И. (2021) Афғонистон: Луғат – маълумотнома. – Т.: Complex Print. – Б.163-164.
6. Ponka T., Dkhar P., Dkhar A. (2017) The Durand line: official positions of Pakistan and Afghanistan over the legitimacy of the border. Advances in social science, education and humanities research, volume 124.
7. Pashtun (May 30, 2025) Britannica. Retrieved from <https://www.britannica.com/topic/Pashtun>

8. Bo'ronov S. (2025) Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga "Tolibon" omilining ta'siri. T.: "Best-publish". – B.24.
9. Abdurahmonov O. (2025) Hozirgi Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o'rni. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. – B.39.
10. Afghanistan Population. (2025) Worldometers. Retrieved from https://www.worldometers.info/world-population/afghanistan-population/#google_vignette
11. Kaura V. (June 27, 2017) The Durand line: A British legacy Plaguing Afghan-Pakistani relations. The Middle East Institute. Retrieved from <https://www.mei.edu/publications/durand-line-british-legacy-plaguing-afghan-pakistani-relations3>
12. Hussain S. (April 2018) Pakistan's alliance making with People's Republic of China from 1990-2010: challenges and counter-measures. Doctor of Philosophy. University of Reading. – P.70-71.
13. Искандаров К. (2013) Фактор Пакистана в афганском конфликте. Центральная Азия и Кавказ. Том 16 Выпуск 3. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/faktor-pakistana-v-afganskoy-konflikte>
14. Siddique A. (2014) The Pashtun question. – London.: HURST & COMPANY. – P.35.
15. Пойя С. (05.04.2010) "Линия Дюранда": 60 лет без мира. Afghanistan.ru. Retrieved from <https://afghanistan.ru/doc/17027.html>
16. Nadiri K. (April 27, 2015) Explaining Pakistan's self-defeating Afghanistan policy. Brookings. <https://www.brookings.edu/blog/markaz/2015/04/27/explaining-pakistans-self-defeating-afghanistan-policy/>
17. Buranov S. The Durand line – key of the Afghan problem. International Journal of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020. Retrieved from <http://www.ijstr.org/final-print/feb2020/The-Durand-line-key-of-the-Afghan-problem.pdf>
18. Haqqani H. (2005) Pakistan: between mosque and military. Carnegie endowment for international peace, Washington, D.C. – P.108.
19. Rubin B. (2002) The Fragmentation of Afghanistan. 2nd ed. - New Haven and London: Yale University Press. – P.134.
20. Khawar H. (2005-2006) Pakistan's Afghanistan policy. Calhoun: The NPS Institutional Archive. Retrieved from https://calhoun.nps.edu/bitstream/handle/10945/2132/05Jun_Hussain.pdf?sequence=1&isAllowed=y

21. Туляганова Н. (2004) Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан. – С.159.
22. Cohen S. (2011) The Future of Pakistan. Washington, D.C. Brookings institution press. – P.251.
23. Pande A. (Jul 4, 2014) Pakistan's Nightmare. Hudson institute. Retrieved from <https://www.hudson.org/foreign-policy/pakistan-s-nightmare>
24. Белокреницкий В., Сикоев Р. (2014) Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – М.: Институт востоковедения РАН. – С.45.
25. Tomsen P. (2002) Post-Taliban Afghanistan and regional co-operation in Central Asia. Retrieved from <http://sam.gov.tr/pdf/perceptions/Volume-VII/march-may-2002/Peter-Tomsen.pdf>
26. Idrees F. (April 25, 2024) Pakistan-Afghanistan relations. Bahria University, Islamabad; Independent. Retrieved from <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4807211>
27. Mehdi J. (October 20, 2016) Evolution and the decline of Pashtunistan movement. Journal of Political Science, Law and International Relations (JP SLIR) Vol. 2, Issue 2, 1-6. Retrieved from <http://www.tjprc.org/publishpapers/1-43-1476954853-1.%20JP SLIR%20-%20Evolution%20and%20the%20Decline%20of%20Pashtunistan.pdf>
28. Chandran S. (May 2010) American military operations inside Pakistan. Institute of peace and conflict studies (IPCS). Retrieved from <https://css.ethz.ch/content/specialinterest/gess/cis/center-for-securities-studies/en/services/digital-library/publications/publication.html/116629>
29. Rahul B. (January 11, 2022) Analysis Pakistan-Afghanistan ties come under strain after Taliban opposes border fencing. The Wire. Retrieved from <https://thewire.in/south-asia/pakistan-afghanistan-ties-come-under-strain-after-taliban-o>
30. Akmalov Sh. (2023) O'zbekiston-Afg'oniston: o'tmishdan hozirgacha. T.: "Zamon poligraf" nashriyoti. – B.122.
31. Бўронов С. (2021) Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёنларида Ўзбекистон геосиёсати: Т.: EFFEKT-D. – Б.33.
32. Каримов И. (1997) Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. – Б.28.